

# RASMIY MUNOSABAT



## RASMIY MUNOSABAT

Termiz shahar hokimligi, ijtimoiy tarmoqlarda “Termiz shahar Bog’ishamol mahallasidagi “Yangi hayot” ko’chasi asfalʼt qilinganligi, qolgan ko’chalar asfalʼt qilinmaganligi yuzasidan aholining noroziligi” bo’yicha qilingan murojaat yuzasidan quyidagilarni ma’lum qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi PQ-5048-sonli qarorida ichki yo’llarni ta’mirlash dasturi asosida Termiz shahrida 49,7 km ichki yo’llarni asfalʼt qoplamali yo’llarga aylantirish belgilangan.

Shu jumladan, shaharning “Bog’ishamol” mahallasi “Yangi hayot” ko’chasining 0,35 km qismini ta’mirlash belgilangan bo’lib, ushbu ko’channing birinchi navbatda boshqa ko’chalar kabi nuqson dalolatnomasi tasdiqlangan, loyiha-smeta xujjatlari davlat ekspertizasidan o’tkazilib, Respublika yo’l qo’mitasida manzilli ro’yxati tasdiqlash uchun taqdim etilgan, manzilli dastur joriy yilning 15 iyun kunda tasdiqlanib, Moliya vazirligidan mablag’ ajratilgandan so’ng joriy yilning avgust oyining yakuniga qadar Bog’ishamol mahallasidagi “Yangi hayot” ko’chasi va boshqa ko’chalarga ham asfalʼtbeton qoplamasi yotqizilishi ma’lum qilinadi.